UO'K - 638.17+638.19+638.11+638.14+638.16.

YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA ASALARACHILIKNING AHAMIYATI VA UNING QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

Mualliflar:

Reimov Nietbay Baynazarovich – ilmiy rahbar, qishloq xójaligi fanlari doktori, professor. Qoraqalpoǵiston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining «Suv xo'jaligi va yerdan foydalanish» kafedrasi professori. Don va sholi ilmiy tadqiqot instituti direktorining ilm, fan va innovatsiyalar boyicha maslahatchisi.

Bekbergenov Zamir - Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining yer tuzish va yer kadastri tálim yunalishi 2 - bosqich talabasi.

Tursınbekova Gúlmira Janabaevna – 06.01.10- «Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi» ixtisosligi bo'yicha 3 - bosqish tayanch doktoranti.

İzoh *–Orol boyida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasidagi asalarachilikning va uni kadastrli joylashtirishning qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.*

Annotatsiya *- Речь идет о влиянии пчеловодства в Республике Каракалпакстан, расположенной в Приаралье, и его кадастрового размещения на урожайность сельскохозяйственных культур.*

Annotation *- It discusses the impact of beekeeping in the Republic of Karakalpakstan, located in the Aral Sea region, and its cadastral placement on agricultural crop yields.*

Kalit so'zlar: *Orol boyi, Qoraqalpog'iston, asalarichilik, kadastr, changlanish, xalq xo'jaligi, asal, inson, qishloq xo'jaligi, ekinlar hosildorligi, iqtisodiy samaradorlik.*

Ключевые слова: *Приарале, Каракалпакстан, пчеловодства, кадастр, опыление,народное хозяйство, мед, человек, сельское хозяйство, урожайность сельскохозяйственных культур, экономическая эффективность.*

Keywords: *Aral Sea region, Karakalpakstan, beekeeping, cadastre, pollination, national economy, honey, human, agriculture, crop yields,.*

Kirish. Asalarichilik inson xo‘jalik faoliyatining eng qadimiy turi bo‘lib, u hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. [2].

Asalarichilik qishloq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki asalarilar ko‘plab ekinlar (meva, sabzavot, rezavorlar) hosildorligini bir necha barobar oshiradi, meva va urug‘larning sifatini yaxshilaydi, shuningdek, biologik xilma-xillikni saqlaydigan asosiy changlatuvchilardir. Asalarilarsiz oziq-ovqatning katta qismini olish mumkin emas, asalarilarning ishlashi esa o‘zaro changlanishni ta’minlaydi - bu tuxumdonlarning shakllanishi uchun asosiy omil bo‘lib, asal ishlab chiqarishdan olinadigan iqtisodiy foydadan kamida 15-20 baravar ko‘pdir [1 va 3].

Adabiyotlar tahlili. Asalarichilik nafaqat oziq ovqatlik va dorilik mahsulotlar - asal yetishtirish, balki asalarichilikning boshqa mahsulotlari: mum, propolis, gul changi, ona suti va asalari zaharini olish va qishloq xo’jaligida ekinlarni changlatuvchilar bolib, mahsulot hajmi va sifatini oshirish imkonini beradi. Dunyodagi eng muhim changlatuvchilardan biri bo‘lib, ularning changlanish jarayonidagi rolini baholab bo‘lmaydi. Asalarilar gullarga nektar va gul changlarini yig‘ish uchun tashrif buyurganlarida, beixtiyor gul changlarini yig‘ib, gullar orasidan olib o‘tadilar. Asalarilar guldan gulga o‘tib, changni tumshuqchaga o‘tkazib, urug‘lanishni ta’minlaydi. Asalari gulni ushlab, silkitmoq

orqali gulchang tushishiga sabab bo‘ladi. Asal beruvchi asalarilar, o‘z navbatida, gul tanlashda eng kam talabchan bo‘lganligi va har bir uyada ko‘p bo‘lganligi sababli muhim ahamiyatga ega, garchi ko‘proq tanlaydigan yovvoyi asalarilar o‘zlari boqadigan o‘simliklarni oziqlantirishda samaraliroq bo‘lsa ham barcha qishloq xo‘jaligi ekinlarining chanlanishida muhim ahamiyatga ega. Bunda gulli o‘simlik turlarining aksariyat ko‘pchiligi changning changchilardan urug‘chilarga o‘tishi tufayligina urug‘ hosil qila oladi. Changlatuvchilarning bunday ishisiz ekotizimda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab o‘zaro bog‘liq turlar va jarayonlar barbod bo‘lishi mumkin. Asalari faolitisiz inson umri va yaxshi yashashi uchun tahdid stolimiz sezilarli bo‘shab qoladi. Asalarilarsiz barcha mevali daraxtlar, rezavor va sabzavot ekinlari turlarining 75 foizi етарли чанглана олмай, етарли ҳосил бера олмасди, якиэкинлар turlari va qahva navi butunlay yo‘q bo‘lib ketadi. Hosilning kamayishi ko‘rinishidagi o‘zgarishlarni biz asalarilar yo‘q bo‘lib ketganidan жойларда аниқ sezamiz [3 va 5].

Danishmand bobomiz Albert Eynshteyn bir vaqtlar shunday deb yozgan edi: "Agar yer yuzidan asalarilar yo‘q bo‘lib ketsa, insoniyat umriga katta xavf tug‘iladi. Shuning uchun, asalarachilikni yuksak usulda asrab, uning atrof muhit va insonlar faoliyati bilan uyg‘unligini ta’minlashimiz zarur bo‘ladi», degan edilar [2].

Tajribaning natijalari. Tadqiqotda dala usuli va matematik statistikaviy usullar qo’llanilib, asosan Chimboy tumanidagi Қamısarıq xo’jaligidagi «Jaksılıq» fermer xo’jaligida o’tkazilib, o’tgan yillar mobaynida olingan mahsulot va boshqa da natijalar Qoraqalpoǵiston Respublikasi boyicha aniqlandi. Bizning tadqiqotimizda asal ari oilalari oldingi eski usulda tomorqalarga, tug’ri kelgan bo’sh joylarga joylashtirilmasdan asalarilar uchun maqbul, mikroiqlim bor, ularning nektar yig’ishi uchun qulay sharoit mavjud gulzarlar, daraxtzorlar yoniga, tez va uzoq vaqt gullaydigan hamda sifatli asal beradigan o’simliklar yoniga joylashtirilishi lozim ekanligi adabiy sharxlar mobaynida aniqlandi. Shuningdak, O’zbekiston Respublikasi sharoitida

paxtazorlar yoniga joylashtirishning da yaxshi natialari urganildi [5].

Respublikamizda har xil yunalishdagi fermer xójaliklarida asalarachilikni yam tashkillashtirish va rivojlantirish qishloq aholisi orasida tashkillashtiruvchi ishbilorman va ruhiy etuk shaxslarni shakillantiruvchi maydonidan zarur xisoblanadi. Asalarchilik xójaligida innovatsiya jarayoni fan-texnika, tashkillashtirilgan boshqarish va boshqa masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega bóladi, shuning uchun fermer xójaliklarining asalarchilikni takomillashtirishda fan-texnika imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati kundan-kunga kengayib, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Asalarchilikda innovatsiyalarning raqobatbardoshlikka erishishdagi katta imkoniyatlarga ega, shuning uchun innovatsion imkoniyatlarni kuchaytiruvchi normativ-huquqiy tuzumlari yaratilgan. Asalarchilik fermer xójaliklarida mahsulot yetishtirishda innovatsiya orqali raqobatdan ustunlikka erishmoqdalar. Ular raqobatga sabr-toqatga erishishning yangi usullarini ózlashtiradi yoki eski usullardan foydalangan holda raqabatbordoshligining yangi usullarini topadi [5].

Yuqoridagilarga asoslangan holda loyhalashtirilgan uchastkalar maydonlari geobotanik tomonidan urganilib chiqilishi asosida qishloq xójaligi ishlab chiqarilishida asalarchilik resusrlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirishni taminlash maqsatida asalarchilik xójaliklarining hozirgi holatini va tarkibini urgangan holda asal resurslarini takomillashtirish uchun ósimliklar dunyosini kópaytirish, suv yetarli bólmaganda ham shór tuproq sharoitida ósishi, kópayishi mumkin kuchli ildiz sistemalari mustahkam, foydalanish bóyicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Qishloq xo‘jaligi va asal resurslarining bozordagi o‘rni aniqlanadi, asalarchilik resurslari mahsulotlarini intensiv ravishda yetishtirish fermer xo‘jaliklari egalik qilayotgan yer maydonlarining ahamiyati aniqlandi. Umuman olganda, asalarchilik fermer xójaligi yerlaridan foydalangan holda innovatsion loyihalarni amalga oshirish,

asalarchilikda asal resurslarning bozordagi órnini belgilashda fermer xójaliklarni qóllab-quvvatlaydigan mexanizmlarni joriy etish, qishloq xójaligi yerlari va asalarchilik resurslar kadastrini tartibga solishda GAT texnologiyalarini qóllab-quvvatlash maqsadga muvofiq bóladi [4].

Asalarachilik oylalarini tug‘ri kadastrli joylashtirish tajribalarida va adabiy tahlillarda urganish mobaynida biz uning muayyan ekinlarga ta’sirini aniqladik. Bunda daraxtlarda hosildorlik asalarilar faoliyati va hosildorlik keskin oshdi.

Sabzavot va rezavor mevalar va boshqa ekinlarda - beda, paxta dalasi, yaylovzorlarda, bog’-rezavor mevalarda urug‘ va meva yetishtirish kuchli changlatuvchilil xossaga ega ekanligi aniqlandi [5].

Asalari oilalari kadastrli bog‘, tabiyy yaylovzorlar yoniga, paxta, beda, pichanzorlar qoshiga yaqin joylashtirilgan holatda asalarilarning sog‘lam yaxshi usib rivojlanishi, kupayishi, hosil tuplashi yaxshi bo‘lib, o‘zlari kadastrli bog‘, tabiyy yaylovzorlar yoniga, paxta, beda, pichanzorlarning mahsuldorligi yuqori bo‘lishiga ma’lum darajada ta’siri bo‘ldi. Paxta dalalarida, bog‘ boshqa da intensiv qishloq xo‘jaligi, pestitsidlar va gerbitsidlarni qo‘llash asalarilar uchun halokatli bo‘lib, asalarilarning kasallanishi, zaharlanishiga, sonining kamayishiga va hosilning to‘liq yig‘ib olinmasligiga olib keldi.

Muhokama. Dala tajribalaridan olingan ma’lumotlarga tayanib, asalari oilalarini kadastrli joylashtirishda paxtazorlarni, bog‘larni va boshqa da qishloq xo‘jaligi ekinlarini zarakunanda va kasalliklarga qarshi kimyoviy ishlashda, defoliyatsiya va desikatsiya ishlarini o‘tkazish vaqtida asalari oilalariga ta’siri bo‘lmaydigan masofaga ko‘chirish maqsadga muvofiq. Sababi paxtazorlar, bog‘lar va yaylovzorlar yoniga qo‘yilgan asalari oilalaridan yuqori va sifatli hosil oligani bilan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini zarakunanda va kasalliklarga qarshi kimyoviy ishlashda, defoliyatsiya va desikatsiya ishlarini o‘tkazish vaqtida asalari oilalarining qirilib ketish xavfi mavjud [5].

Asalari oilalari ҳозирғача eski tomorqa usulida yaki xo‘jalikning tug‘ri

kelgan qulay o‘rniga joylashtirilishi, mavsumning belgili vaqtida ayrim qishloq xo‘jaligi ekinlariga agrokimyoviy preparatlarni qo‘llanish vaqtidaga asalari oilalariga keltiradigan taskari ta’siri hisobga olinmaganligi, asalarilar uchun kichik iqlim mavjudligi to‘liq hisobga olinmay yaki kadastrli joylashtirilmaganligi sababli dunyo miqyosida 4-5 kilogramm, O‘zbekistonda 2,6-3,2 kilogramm asalari asali olinayotgan bir vaqtda Qoraqalpog‘istonda har istemolchiga 120 grammdan tug‘ri kelayotgani uchun asalarachilik faoliyatini kadastrli joylashtirish masalasi kun tarbibining dolzarb masala hisoblanadi. Shunday qilib, qishloq xo‘jaligida asalarichilik nafaqat asal yetishtirish, balki oziq-ovqat xavfsizligi va agroekotizimlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan muhim changlatish xizmati hisoblanadi [5].

Xo’losalar;

1. Asalari oilalarini kadastrli joylashtirishda paxtazorlarni, bog‘larni va boshqa da qishloq xo‘jaligi ekinlarini zarakunanda va kasalliklarga qarshi kimyoviy ishlashda, defoliyatsiya va desikatsiya ishlarini o‘tkazish vaqtida asalari oilalariga ta’siri bo‘lmaydigan masofaga ko‘chirish maqsadga muvofiq. Sababi, paxtazorlar, bog‘lar va yaylovzorlar yoniga qo‘yilgan asalari oilalaridan yuqori va sifatli hosil oligani bilan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini zarakunanda va kasalliklarga qarshi kimyoviy ishlashda, defoliyatsiya va desikatsiya ishlarini o‘tkazish vaqtida asalari oilalarining qirilib ketish xavfi mavjud.

2. O’tkazilgan tadqiqotlar natijasida asalarilar mahsuldorligini yuqorilatish uchun asalarilar yashashi uchun maqbul, mikroiqlim sharoit bor, asalarilarning asal yig’ishi uchun qulay sharoit mavjud gulzarlar, daraxtzorlar yoniga, tez va uzoq vaqt gullaydigan hamda sifatli asal beradigan o’simliklar yoniga joylashtirilishi lozim.

3. Asalarilar bilan changlatish ba’zi ekinlar hosildorligini 58-86 foizga, bog‘, mevalar hosildorligini esa 2-5 martagacha oshirishi mumkinligi ilmiy jihotdan dalillandi.

3.Adabiy sharxlardan olingan ma`lumotlarga va o’tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida asalarilarning mahalliy va boshqa da oldin foydalanilib kelgan zotlariga nisbatan Karnika, Karpat va İtaliya zotlari mahsuldorligi bilan ajralib turishi aniqlandi [5].

4. G’o’za dalalari qoshiga joylashtirilgan asalari kompleksining O’zbekiston Respublikasi sharoitida paxtazorlar yoniga joylashtirishi sifatli va mo’l hosil olindi 5. Asalari bilan changlatish mevalarning yaxshi rivojlanishiga, mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi, ularning ta’mi mazali bulishiga, hajmi yirik, urug‘ miqdori sifatli bulishini taminladi.

6. Changlatishdan olinadigan qo‘shimcha hosil narxi, iqtisodiy samaradorlik, asalarichilik mahsulotlari narxidan ham bir nechta barobar yuqori bo‘lib, uni eng rentabelli agrotexnik usullardan biriga aylantiradi.

7. Qishloq xo‘jaligi korxonalari asalari bilan changlatishga bo‘lgan ehtiyojni tobora ko‘proq anglab yetmoqda va asalarichilar bilan shartnomalar tuzish masalalari integratsiyasi kuchaymaqda.

8. Qishloq xo‘jaligida asalarichilik nafaqat asal yetishtirish, balki oziq-ovqat xavfsizligi, dorilik va agroekotizimlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan muhim changlatish xizmati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Tursinbekova G.J., Reimov N.B. Qoraqalpoǵistonda asalarachilik kadastrini tashkillashtirishning ahamiyati va zarurligi. Progress Annals: Journal of Progressive Research. Volume 2, Issue 7,July 2024.ISSN (E): 2810-6466.Web- site: https://academiaone.org/index.php/8. 42-45pp.

2. Tursinbekova G.J., Reimov N.B. Qoraqalpoǵistonda asalarchilik kadastrini tashkillashtrish.// Journal of New Century Innovations, Retrieved from. article.view-13750.https:www.New journal. org/index.php/new. 52 (3), 72–74pp.

3. Tursinbekova G.J., Reimov N.B. Qoraqalpog'istonda asalarichilikni rivojlantirish «Aral boyı sharayatı ushın eksportbap suw tanqıslıǵı hám topıraq shorlanıwına shıdamlı intensiv sortlar, texnologiyalar hám jańa resursúnemlewshi ideyalar eńgiziw» atamasındaǵı Qaraqalpaqstan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar institutında ótkerilgen xalıqaralıq ilimiy-texnikalıq konferenciya materialları toplam. 31 may 2024g.

5. Tursinbekova Gulmiraning ilmiy hisobotlari.